

**Xorazm viloyati sharoitida Zo‘g‘ora baliq (*Syrinus carpio*)ni
ko‘paytirishning samarali usullari**

K.R.Yo‘ldoshev -UrDU “Biologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi, b.f.f.d.,

D.I. Bazarboyev -Xorazm viloyati Gurlan tumani 18-umumiy o‘rta ta‘lim
maktabi biologiya fani o‘qituvchisi

Аннотация. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida zog‘ora baliq boqish va ko‘paytirishning samarali usullari haqida ma‘lumotlar bayon qilingan. Maqolaga Xorazm baliq klasteri MChJ naslchilik bo‘limi laboratoriyasida olib borilgan tajribalarning natijalari asos qilib olingan. Tajribada zog‘ora baliqlarning 3-5 yoshda, uzunligi 72-80 sm, og‘irligi 6-8 kg kattalikdagi zotlardan sperma va ovuldiriq olingan sperma va ikra toza idishga solib yumshoq predmet (qush pati) bilan aralashtiriladi. Natijada bir necha soat davomida urug‘ hujayra bilan tuxum hujayra qo‘shilib urug‘lanish jarayoni sodir bo‘ladi va zigota hosil bo‘ladi. Zigotalar baliqlar uchun lichinka chiqaradigan apparat (Amur, IVA-200) ga solinadi. Zigotalar 7-14 kun davomida lichinkalarga aylanadi.

Калит so‘zlari: Xorazm baliq MChJ, Zooplankton, Fitoplanktonlar, Ekstradivniy (cho‘kmaydigan) korma, Omuxta yem, Yaylov bo‘limi, Naslchilik bo‘limi, Zigota, Chavoq o‘stirish bo‘limi, Autoliz, Glikoliz.

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективных методах кормления и разведения данио в Хорезмской области. Статья основана на результатах экспериментов, проведенных в лаборатории племенного отдела ООО «Хорезмский рыбный кластер». В эксперименте сперму и икру нерестящихся рыб в возрасте 3-5 лет, длиной 72-80 см и массой 6-8 кг помещали в чистую емкость и смешивали с мягким предметом (птичьим пером). В результате в течение нескольких часов сперматозоид и яйцеклетка объединяются, образуя зиготу. Зиготы помещают в личиночный инкубационный аппарат для рыб (Амур, ИВА-200), в течение 7-14 дней из них развиваются личинки.

Ключевые слова: общество с ограниченной ответственностью Хорезмского рыбаловство, зоопланктон, фитопланктоны, экстрадивный корм, джайлау, селекционный отдел, зигота, аутолиз, гликолиз.

Abstrakt. This article provides information on effective methods of feeding and breeding zebrafish in the Khorezm region. The article is based on the results of experiments carried out in the laboratory of the breeding department of Khorezm Fish Cluster MCHJ. In the experiment, the semen and eggs of spawning fish aged 3-5 years, 72-80 cm long and weighing 6-8 kg were placed in a clean container and mixed with a soft object (bird feather). As a result, within a few hours, the sperm and the egg combine to form a zygote. Zygotes are placed in a larval incubation apparatus for fish (Amur, IVA-200), larvae develop from them within 7-14 days.

Key words: Zooplanktons, phytoplanktons, pasture department, breeding department, zygote, paddy growing department, autolysis, glycolysis.

Baliqlarni rejasiz asosda ovlash, baliq ovlash qoidalariga rioya qilmaslik va iqtisodiy foyda ko‘rish maqsadida baliqlarni ko‘r-ko‘rona ovlash hamda katta ko‘llarni tabiiy suv havzalarini qisqarishi ya’ni ekin maydonlariga aylantirilishi sababli tabiiy turdagi baliqlar nihoyatda kamayib ketdi. Shunday baliq turlaridan biri zog‘ora baliqdir. Zog‘ora baliq tabiiy suv havzalarida kamayib ketgan. Shundan kelib chiqqan holda bu baliqni biologiyasini, ekologiyasini hamda sun‘iy ko‘payish usullarini o‘rganish va aholini sifatli baliq mahsulotlari bilan taminlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tabiiy holda tarqalishi. Zog‘ora baliq (*Surinus carpio*) yer yuzining deyarli barcha chuchuk suvli ko‘llarida, daryolarida, ariqlarda, sholipoyalarda, ba’zan esa daryolarning o‘zanlarida yashaydi. Bunday baliqlar chuchuk suvlardagina emas, balki sho‘rtob suvli havzalarda va Orol dengizida ham uchraydi.[1]

Tashqi ko‘rinishi. Tanasi nisbatan cho‘ziq, deyarli hamma yerda uning yuqori tanali formalari uchraydi. Katta yoshdagi baliqlarning og‘zi tanasiga nisbatan past joylashgan. Suzgich qanotlari to‘q rangda, dum suzgichlarida esa qizg‘ish hollari bo‘ladi. Bu baliqlarning rangi tez-tez o‘zgarib turadi. Tanasining uzunligi maksimal holatda 1 metrgacha va massasi esa 15- 16 kg va undan ham ortishi mumkin. [1]

Tabiiy oziqlanishi. Zog‘ora baliqlar tabiiy holda zooplankton, fitoplanktonlar bilan oziqlanadi.

Yosh baliqlarni dastlab zooplanktonlar (shoxlangan mo‘ylovli va kurak oyoqli qisqichbaqalar) bilan oziqlanib, keyin esa suv ostida yashaydigan jonivorlar (xironomid lichinkalari, mollyuskalar) bilan oziqlanadi. Voyaga yetganlari iste‘mol qiladigan oziqlarning ko‘pchilik qismini chugalchanglar, hasharotlar va yonboshlab suzgichlarning lichinkalari, suvda o‘sadigan o‘simliklar tashkil etadi.[2]

Tabiiy holda ko‘payishi. Zog‘ora baliq uvildiriqlarini aprel oyida suvning temperaturasi 12-15⁰ ga yetganda suv o‘tlari orasiga yoki suv toshgan yerlardagi o‘simliklar orasiga ko‘pi bilan 1,5 metr chuqurlikka tashlaydi. Har qaysi urg‘ochi baliq 1-2, mln donagacha uvildiriq tashlaydi. Ertalabki soatlarda bunday baliqlar 2-10 tadan guruh bo‘lib to‘planishib, suv yuzasiga chiqib sho‘lp-sho‘lp qilib otilib o‘ynaydilar. Kuzatishlarga qaraganda zog‘raning uvildiriq tashlash vaqti bir sutkadan bir oygacha davom etadi. Ko‘pchilik baliqlar esa uvildiriq tashlash joylarida 5-15 kun bo‘ladilar. Erkaklari uch yoshida, urg‘ochilari esa uch yoki to‘rt yoshida jinsiy jihatdan voyaga yetadi.[3]

Zog‘ora baliq boshqa karpsimonlar singari jinsiy voyaga yetgunga qadar o‘shishdan to‘xtamaydi. Lekin adabiyotlardagi ma‘lumotlarga qaraganda 2-4 yoshda nibatan tez o‘shishi, keyinchalik 5 -6 yoshlarda nisbatan sekinlashishi qayd qilingan. [4]

Su‘niy oziqlantirishda (Xorazm baliq MChJ da) qo‘shimcha ravishda baliqlar uchun mo‘ljallangan ozuqaga to‘yimli , protein darajasi 20-26% ni tashkil etadigan omixta yemni beriladi.

“Xorazm” hovuz baliqchilik xo‘jaligi sharoitida 3 yoshda voyaga yetadi.

Xorazm baliq MChJ da naslchilik bo‘limida baliqlarni sun‘iy urchitish sexida lichinka olinadi. Zog‘ora baliqlarning 3-5 yoshda, uzunligi 72-80 sm, og‘irligi 6-8 kg kattalikdagi zotlar asosan inkubatsion sexda nasl olish uchun ishlatiladi. Xovuz baliqchiligida bahorda ona baliqlar bonitirovka (saralash) qilinadi. Har bir tur baliqdan sog‘lomligi, chaqqonligi kuzatilib urg‘ochilaridan ikra (ovuldiriq), erkaklaridan sperma berishga tayyor ona baliqlar saralab olinadi. Zog‘ora baliqlarning baliqning erkak va urg‘ochisi alohida-alohida hovuz (qishgi-yozgi hovuzlar) larga tashlab inkubatsion sun‘iy urchitish davri boshlangunga qadar yaxshilab boqiladi. Baliqlar to‘yinib, ikra berishga yaqinlashganda, suvning harorati 20 C dan oshganda inkubatsiyaga sun‘iy urchitish, lichinka olishni boshlab yuboriladi. Nihoyat baliqlar ikra berishga moyillashganda suvni harorati 22 C dan oshganda su‘niy urchitish boshlanadi. Ona baliqlardan ikra olishda Xitoydan olib kelingan basseynlardan foydalaniladi. Erkak zog‘oralardan sperma (urug‘ hujayra) urg‘ochilaridan esa ovuldiriq (tuxum hujayra) olinadi. Bunda ona baliqlar qorin tomonining boshidan oxiriga qarab ehtiyotlik bilan siqiladi, bunda erkagining suti , urg‘ochisining ikrasi alohida idishlarga (toza tog‘ora, lagan) olinadi. Undan keyin sperma va ikra toza idishga solib yumshoq predmet (qush pati) bilan aralashtiriladi. Natijada bir necha soat davomida urug‘ hujayra bilan tuxum xujayra qo‘shilib urug‘lanish jarayoni sodir bo‘ladi va zigota hosil bo‘ladi. Zigotalar

baliqlar uchun lichinka chiqaradigan apparat (Amur, IVA-200) ga solinadi. Zigotalar 7-14 kun davomida lichinkalarga aylanadi. Naslchilik bo‘limida 6-10-maylarda ish faoliyati boshlanib, 40-45 kun davomida lichinkalar olinadi. Chiqqan lichinkalarni mayda chavoq o‘stirish bo‘limi havzalariga tashlab kech kuzga qadar boqiladi. Ishlatib bo‘lingan ona baliqlarni yaylov bo‘limi hovuzlariga tashlab, boqishni davom ettiriladi.

1-rasm. Xorazm baliq MCHJ naslchilik bo‘limi laboratoriyasida zog‘ora baliqni su‘niy ko‘paytirish jarayoni.



Mayda chavoq o‘stirish bo‘limida lichinkalarni boqish tartibi. Mayda chavoq o‘stirish bo‘limida jonli 12 ta hovuz 121 gektarni tashkil etadi. Bu bo‘limda inkubatsiyadan chiqqan lichinka baliqlari boqiladi va kelasi yilga yaylov havzalariga bir yillik baliqlarni yetishtirishga yuboriladi. Bu bir yillik baliqlar 3 ta yaylov hovuzlarida nazorat asosida normativ bo‘yicha boqiladi. Bahorda yaylov bo‘limi hovuzlariga bir yillik bo‘lgan o‘rtacha 10-25 gr keladigan baliqlar tashlanib, kuzgacha boqilib , el dasturxoniga tortiq qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Zoologiya (xordalilar 2- qism) S. Dadayev, Q. Saparov. Toshkent -2011.(21-bet)
- 2.Axmedov X.Y., Turgunova U, Saidov Z. Baliq chovoqlarini yetishtirish.Toshkent 2006 (33-b)
- 3.Qurbonov R.B, Xalpayev I.I. O‘zbekiston mintaqasidagi inten siv baliq yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent – 2011y. (20-b)
- 4.Qo‘llanma. Respublika baliqchilik xo‘jaligi tabiiy suv havzalarini biriktirib qo‘yish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida. Toshkent, 2008y. (23-b)